




**THE DEPICTION OF LEGEND AND REALITY IN SPUJMAI
ZARYAB'S SHORT STORY "شکار فرشته" ("THE CAPTURED ANGEL")**

Shaxlo Salaydinovna Narzullayeva

2nd-year Master's student

Literary Studies (Dari Language)

Email: shahlonarzullayeva12@gmail.com

A. Mannonov

Professor, Doctor of Philology,

School of Iranian and Afghan Studies,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: story, plot, dialogue, character, literary analysis, genre, narration, persona, inner experience, angel.

Abstract: This short story belongs to the contemporary Dari-speaking female writer Spujmay Zaryab. The plot of the story is aimed at revealing an event that could take place in the conditions of Afghanistan through narration.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

**X SPUJMAY ZARYOBNING "شکار فرشته" "QO'LGA TUSHGAN FARISHTA"
HIKOYASIDA RIVOYAT VA HAQIQAT TASVIRI**

Shaxlo Salaydinovna Narzullayeva

Adabiyotshunoslik (dariy tili) yo'nalishi

2-kurs magistranti

Email: shahlonarzullayeva12@gmail.com

A. Mannonov

filologiya fanlari doktori

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi professori

TDSHU

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Hikoya, syujet, dialog, obraz, badiiy tahlil, janr, rivoyat, personaj, ichki kechinma, farishta.

Annotatsiya: Ushbu hikoya zamonaviy dariyzabon ayol yozuvchisi Spujmay Zaryobga tegishli boʻlib hikoya syujeti Afgʻoniston sharoitida boʻlib oʻtishi mumkin boʻlgan voqeani rivoyat orqali ochib berishga qaratilgan.

ОБРАЗ ЛЕГЕНДЫ И РЕАЛЬНОСТИ В РАССКАЗЕ СПУЖМАЙ ЗАРЬЮБ «شکار فرشته» («ПОЙМАННЫЙ АНГЕЛ»)

Шахло Салаудиновна Нарзуллаева

Магистрантка 2 курса

Направление: литературоведение (язык дари)

Email: shahlonarzullayeva12@gmail.com

А. Маннонов

Профессор, доктор филологических наук,

Высшая школа иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: рассказ, сюжет, диалог, образ, литературный анализ, жанр, повествование, персонаж, внутреннее переживание, ангел.

Аннотация: Данный рассказ принадлежит современной дари-язычной писательнице Спужмай Зарьюб. Сюжет рассказа направлен на раскрытие события, которое могло бы произойти в условиях Афганистана, через повествование.

XX asrning 70-yillariga kelib Afgʻoniston dariyzabon adabiyotida hikoyachilik asosiy oʻrinni egalladi. Juda koʻp taniqli yozuvchilar, jumladan: Asadulla Habib, Rahnavard Zaryob, Karim Misoq, Akrom Usmon va boshqalar oʻzlarining ijodida hikoyachilikka katta eʼtibor berdilar. Ular aynan ushbu janr orqali dariyzabon nasrchilikda tanilgan desak xato boʻlmaydi. Shu yillari Afgʻoniston ayol yozuvchilari orasida Spujmay Zaryobning nomi ham tez-tez koʻzga koʻrina boshladi va koʻp oʻtmay u dariy hikoyanavisligining yirik vakiliga aylandi.

Afgʻoniston dariy adabiyotining 70-yillardan keyingi avlodi boʻlmish Spujmay Zaryob (Rauf) 1949) سپوږمى زرياب (-yili Kobulda maʼrifatli va ziyoli inson Abdurauf Panjshiriy oilasida dunyoga kelgan. Boʻlajak adiba Kobuldagi Malolay litseyini tugatgach Kobul universiteti adabiyot va ijtimoiy bilimlar fakultetining fransuz tili boʻlimiga oʻqishga kirdi. Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagach u oʻqishini Fransiya davom ettirdi, u yerda adabiyot boʻyicha magistrlik va qiyosiy adabiyotshunoslik boʻyicha doktorlik ilmiy darajalarini olishga muvaffaq boʻldi.

Vatanga qaytgandan soʻng Afgʻoniston ayollar bilim yurtida fransuz tilidan dars berdi, keyin esa, Fransiyaning Kobuldagi elchixonasida tarjimon boʻlib ishladi. Afgʻonistonda notinchliklar boshlanganidan soʻng yozuvchi Fransiya muhojirat qilishga majbur boʻldi.

O‘z ona vatanidan yiroqda bo‘lishi taniqli adibaning asarlarida ham sezilib turadi. Spujmay Zaryob o‘zning qator hikoyalarida yurt sog‘inchi mavzularini qalamga olgan. Ularda vatanparvarlik hissi yetakchilik qiladi. Uning ijod ko‘lami juda keng va mazmunli bo‘lib, asarlarida yurt sog‘inchi, ayollar obrazi, jamiyatdagi insonlarning turmush-tarzi chuqur va ma’noli yoritilgan.

Adabiyotshunoslarning ta’kidlashicha, Spujmay Zaryob mamlakat ayol yozuvchilari orasida sermahsul yozuvchi hisoblanadi. Uning asarlari va ijodiy ko‘lami juda keng va sermazmundir. Spujmay Zaryob 17 yoshligidan boshlab hikoyalar mashq qilgan. Hozirga qadar uning “Qo‘ng‘iroqlarning jarang-jurungi” (“شرنگ شرنگ زنگ ها”) hamda “Kobul sahrosi” (“دشت کابل”) nomlari bilan ikkita hikoyalar to‘plami nashr etilgan. Adibaning hikoyalari vaqtli matbuotda ham umumiy majmualarda ham chop etilgan. Ularning ayrim namunolari chet tillariga, jumladan, fransuz va o‘zbek tillariga tajima qilingan. Keyingi yillarda Spujmay roman janrida ham ijod etib, “O‘zga bir yurtda” (“در کشور دیگر”) nomli asari 2014-yilda nashrdan chiqdi. Uning ijodida ayollar obrazi yetakchilik qiladi.

Spujmay hikoyalarida ko‘p hollarda afg‘on ayollari hayoti, ularning muammolari, kechinmalari o‘z ifodasini topgan. Bu obrazlar oddiy hayotiy situatsiyalarda namoyon bo‘ladi, bir qator hikoyalarda esa, yozuvchi voqeani o‘z tilidan bayon etadi. Bu usul orqali muallif o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadi, uning ishonchini qozonadi. Ushbu mavzudagi asarlarning ko‘lamini quyidagi bir hikoya orqali ko‘rib chiqamiz.

“Qo‘lga tushgan farishta”ni badiiy tahlil qiladigan bo‘lsak, hikoya janrida yozilgan bo‘lib, asar syujeti qadimiy rivoyatga asoslangan. Hikoyaning g‘oyasi milliy ruh, tarbiya, oilaviy qadriyatlar va milliy an‘analarning inson ruhiyatiga ta’sirini ifodalagan. Hikoya voqealari ona va uning qizi orqali namoyon bo‘ladi. Yozuvchining hikoyani “Qo‘lga tushgan farishta” (“شکار فرشته”) nomi bilan nomlashi ham ramziy xarakterga egadir.

Avvalo aytish kerakki, “Qo‘lga tushgan farishta” hikoyasida personajlarning ichki hislari, ichki kechinmalariga keng o‘rin berilgandir. Asar syujetida qizcha va uning onasi hikoyadagi asosiy obrazlar hisoblanadi. Yozuvchi hikoya syujetida asosiy chiziqni ushbu ikkita obraz orqali ko‘rsatadi.

Ona hikoyada barcha onalar kabi juda samimiy va farzandining savollar yomg‘iriga tinmay javob berayotgan holda tasvirlanadi. Undagi samimiylik, soddalik, doimiy yumushlari ichida oshxonada piyoz tug‘rab turgan holda namoyon bo‘ladi. To‘rt yoshli qizcha oyna tokchasida o‘tirib qorning yog‘ishini tomosha qiladi va onasini qor osmondan qanday tushadi degan savollarga tuta boshlaydi. Ona qorni farishtalar olib tushadi deya javob beradi. Qizcha qorni bor qiziqishi bilan tomosha qiladi. Bo‘yi yetmaganligi sababli oyna tokchasidan tashqariga bo‘ynini cho‘zib qaraydi. Ichidagi bolalik shodligi sababli qorning yog‘ishini yanada yaxshiroq ko‘rish maqsadida u oynadan bu oynaga o‘tib tomosha qiladi. Qizaloq farishta qanday ko‘rinishga ega ekanligini oyisi topib bergan

rasmli kitoblarda ko‘rgan edi. Shu sababli qorni go‘yo farishta olib tushayotgandek juda katta qiziqish bilan tomosha qilar edi.

Ayol qizchasining qorga mahliyo bo‘lib turgan harakatlarini kuzatib turib o‘zi ham beixtiyor 25 yil orqaga, o‘z o‘tmishiga qaytadi va xuddi qizalog‘i kabi buvisiga o‘zi ham shunday savollar berganini eslaydi. O‘sha vaqtda uning buvisi qorni osmondan farishtalar olib tushishini qadimiy rivoyatga asoslangan gaplarni aytib bergan edi. Shuningdek, farishtalar barcha insonlarning oldi va orqasida, ikki yelkasida bo‘lishini, yaxshi va yomon amallarini yozib turishini, bu amallar yozilgan daftar qiyomat kunida ko‘rsatilishini aytgan edi. Yaxshi amalli insonlar Jannatga tushishi va yomon amali borlar esa do‘zaxga ravona bo‘lishini so‘zlaydi. Do‘zaxda inson tanasi olovdan kuyishi va tashnalikdan azob chekishi haqida gapiradi. Bu gaplarni eshitganidan boshlab qizaloq, ya‘ni hikoyadagi ona kattalarga salom berish, hurmat qilish, suv ichib shukrini ado qilish va boshqa yaxshi amallar qilish lozim ekanligini bola aqli bilan anglab yetadi. Jumladan, yozuvchi ayolning yoshligidagi voqeani quyidagicha tasvirlagan:

وحشتناک بود و از همان لحظه روابطم با ملک چیم اصلاً با شانه چیم با دست و پای چیم خراب شده بود. به نظرم می‌آورد که این ملک شانه چیم چون منشی از شب تا صبح در باره من می‌نویسد و تلاش می‌کند که مرا به دوزخ بفرستد. اگر به کلانی سلام نمی‌دانم اگر از همه حق و ناحق اطاعت نمی‌کردم اگر چون و چرا می‌کردم اگر یک گیلان آب می‌نوشیدم و شکار را فراموش می‌کردم اگر کلانی می‌درآمد و من قد راست ایستاد نمی‌شدم اگر دست کلانی را نمی‌بوسیدم می‌دانستم که کارم ساخته است و ملک شانه چیم چون منشی وظیفه شناسی همه گناهانم را شر شر خواهد نوشت و ثبت خواهد کرد و فاصله من با دوزخ نزدیکتر خواهد شد. بعضی وقت ها هم از ترس به خلاف میل خودم رویم را سوی شانه چیم می‌کردم و لبخند دوستانه یی می‌زدم و می‌خواستم که به ملک شانه چیم بگویم که دوستش دارم تا بدین صورت روابطم با ملک شانه چیم خوب باشد و حداقل به ناحق یا از سر لج چیزی ثبت آنورق نکند.

“Qo‘rqinchli edi. Shu lahzadan boshlab chap yelkamdagi malagim bilan, qolaversa, chap yelkam bilan, chap qo‘l, oyog‘im bilan aloqam buzildi. Hayolimda chap yelkamdagi malak bir kotibga o‘xshab ertalabdan kechgacha va kechqurundan ertalabgacha mening nima qilganimni yozib boradi, meni do‘zaxga ravona qilishga harakat qiladi. Agar biron keksaga salom bermasam, haqqa ham, nohaqqa ham bo‘yin egmasam, agar nega unday, nega bunday desam, agar bir stakan suv ichib shukr aytishni unutsam, agar yoshi ulug‘ bir kishi kirsayu men o‘rnimdan turmasam, agar kattalarning qo‘lini o‘pmasam, bilardimki, ishim chatoq, chap yelkamdagi malagim ishiga sodiq kotib singari hamma gunohlarimni shirillatib yozadi va muhrlab qo‘yadi, shunda men bilan do‘zax orasidagi masofa qisqarib boradi.

Ayrim vaqtlarda qo‘rqanimdan o‘zim istamagan holda yuzimni chap yelkam tomonga burib do‘stona jilmayib qo‘yardim, bu bilan chap yelkamdagi malakka uni yaxshi ko‘rishimni bildirib qo‘ymoqchidek, shu yo‘l bilan hech bo‘lmaganda, sababsiz yoki qaysarlik qilib varag‘imga yomon narsa yozib qo‘ymasin, deb u bilan aloqamni yaxshilab olmoqchi bo‘lardim.”

Hikoyada ayni shu gap, ya'ni to'rt yoshli qiziga o'z buvisidan eshitgan rivoyatini so'zlab beradi va o'z yoshligini eslab, buvisidan eshitganlarini o'z qizalog'iga ham tushuntiradi. Ayol rivoyatning tarbiyaviy tomoniga urg'u berish orqali farzandiga mehr bilan javob berishi natijasida go'zal tarbiya ham berayotgan bo'ladi. Yelkamizdagi farishtalar yaxshiyu, yomon amallarimizni yozib turishini eslab, qizaloqni ham qaysidir ma'noda yomonliklardan qaytaradi. O'z farzandiga go'zal o'rnak bo'ladi.

Yozuvchi bu hikoyasi bilan, bir tomondan, milliy ruh, tarbiya va an'analarning inson ongiga ta'sirini ifodalagan. Hikoyada personajlarning ichki kechinmalariga keng o'rin berilganligi diqqatga sazovordir.

Hikoyada ayol – ona obrazi samimiy, mehribon, oilaparvar ko'rinishida gavdalanitirilgan bo'lib, farzandi esa yaqindagina to'rt yoshga to'lgan, barcha bolalar singari qiziquvchan, sersavol, beg'ubor, qorning yog'ishiga mahliyo bo'lib oyna oldidan beri kelmaydigan qizaloq sifatida tasvirlangan. U oynani ochib yog'ayotgan qor parchalariga qo'lini tutadi va qorni kaftida ushlab, onasi aytgan farishtani ushladim deya onasi tomon yuguradi. Kaftida qor-farishtani tutib turganiga sevinadi. Bizning ham qanotlarimiz bo'lsa, farishtaga o'xshab osmondan qor olib tushar edik deya hayol suradi. Qizaloq farishtani yaxshilik timsoli sifatida ko'radi, o'zi ham farishtaga aylanishni orzu qiladi. Kichik cho'ntagidagi bor tangalarini olib, onasidan shu pullarga ikkita oppoq qanot sotib olib berishini so'raydi. Bu manzaradan uning qanchalar beg'ubor obrazda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi ushbu sahnani mahorat bilan qisqa-qisqa dialogda xalqona iboralarga asoslangan jumlar orqali quyidagicha tasvirlagan:

: ديدم كه ارسى را باز كرد، دستش را از ارسى بيرون كرد پا غنده هاى برف روى كف دستش افتادند. فرياد زد

! يك فرشته ده قف دستم شيشته -

:دويده آمد .مشتش بسته بود .گفت

ميخا مى ده مشتم يك فرشته س ؟

: و مشتش را باز كرد قطره آبى در كف دست كوچكش لغزيد .گفت

پريد .ديدى؟ رفت كه دگه بر ف بياره ديدى ؟

: گفتم

نى

: مصرانه گفت

! مه ديدم

: از دامنم گرفت و گفت

دو بال سفيد بريم بخر

: گفتم

خو ميخرم

چه وخت ؟

صبا -

: پرسید

چند میته؟

: گفتم

. نمیفام

: با عجله در جیب جا کتش به جستجو پرداخت سکه نا چیزی از آن بیرون کرد و گفت

. بیسه خودم دارم

Asar kompozitsiyasi sodda qurilishga ega bo'lib, hikoya davomida voqealar rivoji asosan ikki obraz – ona va qizaloqning dialogi asosida kechadi. Hikoyada ayrim psixologik ruhiy kechinmalar tasviri ham bor. Ona o'z hikoyasi davomida yoshlikda buvisidan eshitgan rivoyatdan qanchalik ta'sirlanganlik holatini o'z ruhiy kechinmalari orqali bayon qilingani ko'rinadi. Ba'zi o'rinlarda onaning hayoli orqali uning o'ylari monolog shaklida namoyon bo'ladi. Hikoya syujetida voqeaning yuz berishi va hikoya qilinish vaqti turli zamon va makonda kechayotgan voqealarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Onaning yoshlik vaqtidagi voqea 25 yildan so'ng kelajakda qiziga tasvirlab berish bilan jonlantiriladi. Asarda onaning qilgan hikoyasi va bu orqali farzandining tarbiyasiga ko'rsatgan ta'siri asarning rivoyat va haqiqat tasvirini gavdalandirgan. Bundan tashqari hayotda o'tmish va kelajak orasida uzilmas aloqa borligini ham ko'rsatadi.

S.Zaryob hikoyani yozishda juda sodda, murakkab bo'lmagan so'zlardan foydalanib, ona va bola tilidan so'zlaydi. O'quvchi bir o'qishdayoq hikoya mazmunini tushuna oladi.

Yozuvchining ushbu “Qo'lga tushgan farishta” hikoyasini tahlil qilar ekanmiz Chingiz Aytmatovning barchaga mashhur bo'lgan “Oq kema” qissasi esga tushadi. “Oq kema” qissasida asosiy obraz qilib yetti yoshli bolakay tasvirlangan bo'lsa, “Qo'lga tushgan farishta” hikoyasida esa to'rt yoshli qizaloq gavdalandirilgan. Har ikki asarning bosh qahramonlari beg'ubor bolalar. Ammo, realist yozuvchi Chingiz Aytmatov qissasida afsonaga ishongan bolaning taqdiri fojea bilan tugaydi. Lekin Spujmay Zaryobning hikoyasida bunday fojeaviy holat mavjud emas. Hikoya faqat qizaloqni rivoyatga ishontirish va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ularning biri oq kemani ezgulik, yaxshilik ramzi deb bilsa, ikkinchisi farishtani xuddi shunday tasavvur qiladi. S.Zaryobning “Qo'lga tushgan farishta” hikoyasi va Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasining nomlari ham ramziy nomlardir. Ularning har ikkisida ham yaxshilik, beg'uborlik tasvirlangan. Bundan tashqari bu asarlarda inson va tabiat masalasi keng o'rin tutadi. Qizaloq va bolakayning ruhiy-hissiy holatlari ko'proq tabiat bilan uyg'un holda ochib berilgan. Shu bilan birgalikda ushbu asarlarda hikoya ichida hikoya usulidan foydalanilgani ham o'quvchini o'ziga tortadi. Hikoyadagi qor yog'ish manzarasi, qizaloqning bu holatlari, quvonib u oynadan bu oynaga yugurishi, qo'lga tushgan qor parchasini benihoya quvonib onasiga ko'rsatishi va erib ketgan qor parchasini yo'q bo'lib qolgan holatlaridan bolalarcha hayron

bo‘lishi kabi holatlar ta’sirli va jonli tasvirlangan. Spujmay Zaryob o‘z hikoyasi tiliga alohida e’tibor beradi.

Xulosa qilib aytganda, Spujmay Zaryobning ushbu kichik bir hikoyasida oddiy bir rivoyatning hikoya syujetiga singdirilishi orqali hayotiy bir manzarani on avay uning qizi obrazlari tasvirlashga muvaffaq bo‘ladi. Hikoyadagi ona obrazi ham, to‘rt yoshli qizaloq obrazi ham nihoyatda samimiy va jonli bo‘yoqlarda o‘z aksini topgan. Yozuvchi ko‘proq xalqqa tushunarli, xalq so‘zlashuv tilida o‘z tasvirlarini bayon qilishga va hikoyaning tilini xalqchil bo‘lishiga erishgan. Hikoya syujeti uning qurilmasiga mutanosib ravishda ishlangan. Shuning uchun ham hikoya kichik bo‘lishiga qaramasdan to‘laqonli bir badiiy asar sifatida o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Xususan, hikoyadagi rivoyat bilan haqiqatning badiiy asar syujetining asosiy mag‘ziga aylanishi yozuvchining mahorati va badiiy barkamolligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. شرنګ شرنګ زنگها (مجموعه داستان). (سپوژمی زریاب. در برج خوت ۱۳۶۲.
2. Inomxo‘jayev R. Afg‘oniston dariyzabon adabiyoti (XIX asr oxiri-XX asr) – T.: 2018.
3. Aytmatov Ch. Oq kema (qissa) – T.: O‘qituvchi, 2012.
4. Киселева Л.Н. Миколапчик В.И. Дари-русский словарь. Москва, 1978.
5. Рубинчик Ю. А. Османов М.Н. Дорри Дж.Х. Словарь персидско-русский. Москва, 1983.
6. www.ziyouz.com
7. <https://www.iranketab.ir/profile/40497-%D8%B3%D9%BE%D9%88%DA%98%D9%85%DB%8C-%D8%B2%D8%B1%DB%8C%D8%A7%D8%A8>
8. <https://cyberleninka.ru/>